



UDK:159.072(575.1)

Mahmuda JAMOLOVA,

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tayanch doktoranti

E-mail: mahmudajamolova9297@gmail.com

Nordik xalqaro universiteti dotsenti psix. f.n. N. Lutfullayeva taqrizi asosida

EMOTSIONAL VA IJTIMOIIY INTELEKTNING O'QITUVCHILAR KASBIY O'ZLIGINI ANGLASHDA ROLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada emotsional va ijtimoiy intellektning o'qituvchilar kasbiy o'zligini anglashdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi emotsional va ijtimoiy intellekt talab etilishi va bu intellekt aqliy intellektga nisbatan kasbiy samaradorlikka ko'proq ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Olimlarning tadqiqotlari asosida o'qituvchilarda ijtimoiy va emotsional intellektni rivojlantirishning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri bayon etiladi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsiy va kasbiy o'zlikni anglash jarayoni hamda hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy metodlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt, kasbiy o'zlikni anglash, o'qituvchilik, ta'lim sifati, shaxslararo munosabat.

THE ROLE OF EMOTIONAL AND SOCIAL INTELLIGENCE IN TEACHERS' PROFESSIONAL IDENTITY

Annotation

This article analyzes the role of emotional and social intelligence in the professional self-awareness of teachers. It is also emphasized that a high level of emotional and social intelligence is required in the professional activity of teachers, and this intelligence has a greater influence on professional effectiveness than mental intelligence. Based on the research of scientists, the positive influence of the development of social and emotional intelligence in teachers on the quality of education is described. The article also discusses the process of personal and professional self-awareness of teachers in the socio-cultural environment and modern methods of developing emotional intelligence.

Key words: Emotional intelligence, social intelligence, professional self-awareness, teaching, quality of education, interpersonal relations.

РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО И СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье анализируется роль эмоционального и социального интеллекта в профессиональном самосознании учителей. Также подчеркивается, что профессиональная деятельность учителей требует высокого уровня эмоционального и социального интеллекта, и этот интеллект влияет на профессиональную эффективность больше, чем умственный интеллект. На основе исследований ученых описывается положительное влияние развития социального и эмоционального интеллекта у учителей на качество образования. Также в статье обсуждается процесс личностного и профессионального самосознания учителей в социокультурной среде и современные методы развития эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, социальный интеллект, профессиональное самосознание, преподавание, качество образования, межличностные отношения.

Kirish. Inson o'zligini anglashi nafaqat subyektiv, balki shaxslararo muloqot, ijtimoiylashish jarayonida obyektiv xarakterga ham egadir. Ayniqsa bu kasbiy faoliyatda yaqol namoyon bo'ladi. O'qituvchilik kasbida talabalar, rahbariyat, hamkasblar, ota-onalar bilan doimiy muloqot pedagoglarning kasbiy o'zligini anglashga ta'sir etadi. Kasbiy o'zlikni anglash va shaxslararo munosabatlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, bu jarayonda o'qituvchilarda yuqori emotsional va ijtimoiy intellekt talab etiladi. Emotsional va ijtimoiy intellektning rivojlanganligi aqliy intellektning rivojlanganligiga qaraganda inson kasbiy faoliyatiga samarali ta'sir o'kazadi. Bu ikki intellektni nevrologik, psixologik jihatdan tadqiq etgan R. Bar-on va boshqalar. ilmiy asoslarini keltirishgan. M.O'zdemir Jihan va boshqalar, ta'limda asosan bilim berishga asoslanib qolganligi, emotsional va ijtimoiy rivojlantirish chetda qolayotganini ta'kidlagan. Xuddi shuningdek, O'zbekistonda ham o'quv dasturlari asosan talabalar aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Endigina oliy ta'limni bitirgan yosh o'qituvchilar real hayot va oliy ta'limda olgan bilimlarni integratsiya qilishda qiyinchilikka duch kelishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'arbda o'qituvchilar kasbiy o'zligini anglashi va bunda emotsional-ijtimoiy intellektning ahamiyati borasida bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. Bunga AQSH, Gollandiya, Isroil, Xitoy, Turkiya, Rossiyada olib borilgan tadqiqotlarni misol keltirish mumkin. Olimlarda E. Amdurer va boshqalar, emotsional va ijtimoiy intellektning kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatga ta'sirini tahlil

qilishgan. Mualliflar emotsional intellektning rahbarlik qobiliyatida, samarali muloqot va stressni boshqarishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar [1]. R. Bar-On modeli esa emotsional-ijtimoiy intellektni shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali insonning hissiy holatini boshqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatiga urg'u beradi. Ushbu model o'qituvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlash uchun muhim nazariy asosdir [2]. AQSH va Yevropada o'qituvchilar emotsional intellektini baholashda asosan Bar-On modelidan foydalanilgan tadqiqotlar mavjud. Bastian va boshqalar emotsional intellektning hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sirini o'rganishgan. Biroq, mualliflar shaxsiy fazilatlar va kognitiv qobiliyatlar emotsional intellektdan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan [3]. M. Brackett, S. Rivers va P. Salovey emotsional intellektning shaxsiy, ijtimoiy, akademik va ish muhitidagi muvaffaqiyatga ta'sirini tahlil qilishgan. Ular emotsional intellektning o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va o'zlashtirish natijalarini yaxshilashdagi rolini ta'kidlashadi [4]. S. Day va boshqalar, o'qituvchilarning shaxsiy tajribalari va kasbiy o'zlikni anglashi ularning ta'lim sifati va samaradorligiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishgan. Bunda o'qituvchilarning emotsional intellekti ularning o'quvchilar bilan munosabatlarini yaxshilashga yordam berishini kuzatishgan [5]. Meijer o'qituvchining kasbiy o'zlikni anglashi va tajribasi ularning shaxsiy rivojlanishi va ta'lim sifati bilan qanday bog'liqligini o'rgangan. U

o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitda o'zini anglash jarayonini tahlil qilgan [11]. Mortiboys hissiy intellektning dars jarayonidagi samaradorlikka ta'sirini tahlil qilgan [10]. M. O'zdemir Jihan va Dilekman emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlarining o'qituvchilarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sirini tahlil qilishgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va emotsional intellektni rivojlantirish ta'lim jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi [14]. Susar Kirmizi va Yurdakal emotsional intellektga ega o'qituvchilarning sinfda ijobiy muhit yaratishi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishini tahlil qilishgan [13].

Tahlil va natijalar. Kasbiy o'zlikni anglash. O'zlikni anglashga ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan yondashiladi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar o'zligini anglash "yakka holda" emas, balki ijtimoiy va madaniy kuchlar ta'sirida rivojlanadi. O'qituvchilarda kasbiy o'zlikni anglash jarayoni atrofda ularning kasbiga bo'lgan "umumiy munosabati" asosida shakllanib, doimiy ravishda yaxshilab boriladi. O'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, u izlanish, noaniqlik va ziddiyatli davrlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu jarayon pirovardida shaxsiy va kasbiy o'zlikni anglashning uyg'unlashuviga olib keladi [11].

O'qituvchilarning o'zligini anglashi ularning kasbiy hayotini tushunish va karera qarorlarini qabul qilishda birlamchi omil hisoblanadi. O'qituvchilarning kasbiy o'zligini anglashi ularning motivatsiyasi, samaradorligi va eng muhimi, ijtimoiy va hissiy farovonligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy-hissiy o'rganishga oid tadqiqotlar kattalarning akademik, ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uning ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

Emotsional intellektning o'qituvchilar faoliyatida ahamiyati. Bugungi kunda insonlarning aqliy qobiliyatlarini baholaydigan IQ bilan birga EQ yoki EI (Emotsional intellekt) termini akademik doiralarda birday qo'llanilmoqda. 1930-yillardayoq psixolog E.Torndayk "ijtimoiy intellekt" tushunchasini boshqa odamlar bilan til topisha olish qobiliyati deb ta'riflagan edi. Emotsional intellekt tushunchasi amerikalik psixolog Abraham Maslou tomonidan "Hissiy kuchi" kuch sifatida fanda ilgari surilgan. Shundan so'ng ko'plab olimlar emotsional intellekt bo'lasida izlanishlar olib borib, turli ta'riflar berishgan. Garchi hissiy intellektning bir nechta ta'riflari bo'lsa-da, eng keng qamrovli va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ta'rifni J. Mayer va P. Salovey taklif qilgan. Ularga ko'ra, hissiy intellekt - bu o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini kuzatish, ular o'rtasidagi farqni ajrata olish hamda bu ma'lumotlardan o'z fikrlari va harakatlarida foydalanish qobiliyatidir [9]. Emotsional intellektning o'lchov birliklarini ishlab chiqqan Bar-On ta'kidlashicha "Emotsional intellekt - bu o'zaro bog'liq hissiy va ijtimoiy kompetensiyalar, ko'nikmalar va vositalarning kesishmasidir. Bu o'zimizni qanchalik samarali tushunishimiz va ifoda etishimizni hamda kundalik talablarga qanday munosabatda bo'lishimizni belgilovchi omildir"[2]. YA'ni emotsional intellekti yuqori shaxs nafaqat o'zining boshqalarning ham hissiyotlarini yaxshi tushunib, baholay oladi.

Yuqori hissiy intellektga ega odamlar o'z his-tuyg'ularidan samarali foydalana oladilar. EI past bo'lgan odamlar ularga e'tibor bermasliklari, noto'g'ri talqin qilishlari yoki bu signallardan foydalanmasdan ularga to'liq bo'ysunishlari mumkin. Ikkinchidan, EQdan foydalanganda ko'pincha aql va his-tuyg'ular o'rtasida noto'g'ri kontrast mavjud va hatto hissiy intellekt oddiy aqldan muhimroq bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, EI ong va his-tuyg'ular ajralmas bir butun bo'lib, inson xatti-harakatlariga birgalikda hissa qo'shishini anglatadi [12]. Bunda hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari va pedagog mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni o'rganish jarayonida yuqori darajadagi hissiy intellektni rivojlantirishga intiladigan o'qituvchining yaxlit o'zini o'zi rivojlantiruvchi shaxs degan fikrga kelish mumkin [7].

Shuningdek, o'qituvchi har qancha o'z fanining bilimdoni bo'lmasin, u talabalari nimani his qilayotganini tushunmasa, ularning qiziqishlari, yoshga doir xususiyatlarini hisoblabga olmasa, shaxslararo munosabatda no'noq bo'lsa, fanini talabaga zo'raki singdirishga urinsa albatta bunday o'qituvchida ish jarayonida doimiy ijtimoiy-ruhiy muammolar bo'ladi.

Garchi hissiy intellekt ko'nikmalari hayotning har bir bosqichida zarur bo'lsa-da, bu ko'nikmalarni shaxs va qobiliyatlar rivojlanishining muhim davri bo'lgan boshlang'ich maktab ta'limi davrida shakllantirish juda muhimdir. Buning uchun, avvalo, bolalar bilan bunday muhim rivojlanish davrlarida yaqindan shug'ullanadigan boshlang'ich sinf o'qituvchilarning emotsional intellekti yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Buni aynan O'zdemir Jihan va Dilekman o'rganib, metod va trening dasturlar tuzishgan [1]. Hamda muammolarni yaxshiroq hal qilish, qiyinchiliklarni yengish va xavotirga qarshi kurashish kabi turli xil kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi [3]. Shuningdek, olimlarning kuzatishlari shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich ta'limdan to'liq ta'limgacha barcha o'quv dasturlari o'quvchilarning kognativ bilimlarini rivojlantirishga qaratilmoqda va emotsional intellektni rivojlantirish hisobga olinmayapti. Xususan, A.Mortiboysning ta'kidlashicha, o'qitishda his-tuyg'ularning rolini tan olish va oliy ta'limda o'qitish allaqachon kechiktirilgan [10]. Day va boshqalarning izlanishlari natijasida, ta'limda faqat bilim berishga urg'u berish ijtimoiy-emotsional va xulq-atvor tomonlarni e'tiborsiz qoldirishligiga olib kelishi aniqlashgan [5]. Natijada endigina oliy ta'limni bitirib, kasbiy faoliyatini boshlagan ayrim yosh o'qituvchilarda kasbiy o'zlikni anglash jarayoni sustlashib, kasbdagi stress va bosimlarga bardosh bermaslik holati kuzatilgan. Natijada yosh o'qituvchilar kasblarini o'zgartirish, yoki interaktiv dars berish o'rniga konservativ o'qitish uslubiga o'tishgan.

Ijtimoiy va hissiy intellekt. Aqliy salohiyat va emotsional rivojlanganlikni ifodolovchi intellektlardan tashqari ijtimoiy intellekt ham mavjuddir. Ijtimoiy intellekt (SI), ba'zan ijtimoiy intellekt ko'effitsiyenti yoki (SQ) deb ham ataladi. Bu o'zining va boshqalarning harakatlarini tushunish qobiliyatidir. Ijtimoiy intellekt odamlar bilan tajriba va ijtimoiy muhitdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklardan o'rganiladi va rivojlanadi. Bu muhim shaxslararo ko'nikma bo'lib, odamlarga hayotining barcha jabhalarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Ijtimoiy intellekt aqliy va hissiy intellekt bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy intellekt va ijtimoiy neyropsixologiyani o'rganayotgan tadqiqotchi psixologlar insonning ijtimoiy aqli qanday ishlashi haqida ko'plab tamoyillarni aniqlashgan. Psixologlar Nensi Kantor va Jon Kilstrom odamlar o'z ijtimoiy munosabatlarini tushunish uchun qo'llaydigan tushunchalarni (masalan, "Men qanday vaziyatdaman?", "Bu qanday odam?", "Men bilan kim gaplashyapti?"), xulosa chiqarish uchun foydalaniladigan qoidalarini ("U buni aytib nimani nazarda tutdi?") va harakatlarni rejalashtirish uchun ("Men bu haqda nima qilmoqchiman?") batafsil ta'riflab berishgan [8]. Ijtimoiy va emotsional intellektini rivojlantirish birgalikda rivojlantirish nafaqat o'qituvchi talabalar uchun zarur, balki ta'limdagi islohotlarda yuqori natijaga erishish uchun ham muhimdir [4]. Boshqacha aytganda, bu bolalar va kattalar sog'lom shaxsiyatni shakllantirish, his-tuyg'ularni tushunish va boshqarish, ijobiy maqsadlar qo'yish va ularga erishish, hamdardlik bildirish hamda ijobiy munosabatlarni o'rnatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni o'zlashtirish va samarali qo'llash jarayonidir (Kress va Elias, 2006). Ijtimoiy-emotsional rivojlanish ta'lim va inson rivojlanishining ajralmas qismi sifatida belgilanadi. Uning asosini o'rganish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan beshta o'zaro bog'liq ijtimoiy va hissiy kompetensiyalar tashkil etadi [14].

o'z-o'zini anglash

o'z-o'zini boshqarish

ijtimoiy xabardorlik

munosabat o'rnatish ko'nikmalari

mas'uliyatli qaror qabul qilish.

Ushbu ko'nikmalarni egallagan o'qituvchi ta'lim muhitidan muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy va hissiy jihatdan kompetentli o'qituvchilar sinfda ijobiy muhit yaratadi. Shunday qilib, o'quvchilarning his-tuyg'ulariga tegishli verbal va nonverbal ifodalar orqali javob beradigan o'qituvchi nojo'ya xatti-harakatlarning oldini olishi va darsni samarali boshqarishi mumkin. D. Goleman ta'kidlashicha, salbiy hissiyotlarni rivojlantirgan o'quvchida o'rganish jarayoni sodir bo'lmaydi. Shu sababli, nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham to'liq rivojlangan ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

Xulosa va takliflar. O'qituvchilarning emotsional va ijtimoiy intellekti ularning kasbiy o'zligini anglash, ta'lim jarayonidagi samaradorlik va o'quvchilarning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun muhim omildir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini anglash va shaxslararo munosabatlarni samarali yuritish qobiliyatlari ularning kasbiy rivojlanishi va ta'lim sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional intellekti yuqori bo'lgan o'qituvchilar stress va bosimlarga bardosh berish, o'quvchilar bilan iliq munosabat

o'rnatish, nizolarni hal qilish va o'quv jarayonini samarali boshqarishda ustunlikka ega bo'ladilar. Shu sababli, ta'lim tizimida emotsional va ijtimoiy intellektni rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish, o'qituvchilarning hissiy ko'nikmalarini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish zarur. Bu nafaqat o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlaydi, balki o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va natijalarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. Amdurer, E., Boyatzis, R. E., Saatcioglu, A., Smith, M. L., & Taylor, S. N. (2014). Emotional and Social Intelligence Competencies as a Factor in Career and Life Success. *Journal of Management Development*.
2. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). *Psicothema*, 18, 13–25.
3. Bastian, V. A., Burns, N. R., & Nettelbeck, T. (2005). Emotional Intelligence Predicts Life Skills, but Not as Well as Personality and Cognitive Abilities. *Personality and Individual Differences*.
4. Brackett, M. A., Rivers, S. E., & Salovey, P. (2011). Emotional Intelligence: Implications for Personal, Social, Academic, and Workplace Success. *Social and Personality Psychology Compass*.
5. Day, C., Sammons, P., Stobart, G., Kington, A., & Gu, Q. (2007). *Teachers Matter: Connecting Lives, Work and Effectiveness*. Open University Press
6. Goleman, D. (1997). *Emotional intelligence: why it can matter more than IQ*. New York, NY: Bantam Books.
7. Iskandarov, N. (2024). Emotsional intellekt bo'lajak pedagog shaxsining motivatsion sohasini boshqaruv omili sifatida. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(12 Special Issue), 567–569.
8. Kihlstrom, John F.; Cantor, Nancy. "Social Intelligence". John F. Kihlstrom. Archived from the original on 2015-12-22. Retrieved 2015-12-20.
9. Mayer, J. D., and Salovey, P. (1997). "What is emotional intelligence?" in *Emotional development and emotional intelligence: educational implications*. eds. P. Salovey and D. J. Sluyter (New York: Basic Books), 3–34.
10. Mortiboys, A. (2005). *Teaching with Emotional Intelligence: A Step-by-Step Guide for Higher and Further Education Professionals*. Routledge
11. Meijer, P. C. (2011). The Role of Experience in Teacher Identity Development. *Cambridge Journal of Education*
12. Sharofitdinov, A. (2023). Emotsional intellekt tushunchasining psixologik tavsifi. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1)
13. Susar Kırmızı, F., & Yurdakal, İ. H. (2020). Emotional Intelligence and Teacher Leadership: An Examination of Teacher Perceptions. *International Journal of Leadership in Education*.
14. Özdemir Cihan M and Dilekmen M (2024) Emotional intelligence training for pre-service primary school teachers: a mixed methods research. *Front. Psychol.* 15:1326082. doi: 10.3389/fpsyg.2024.1326082